DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-22 Pages: 196-204

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



ARABISMS IN ALISHER NAVOI'S MASNAVI "SAB'AI SAYYOR"

Mu'tabarkhon A. Madaeva
Senior Lecturer
Arabic Language and Literature al-Azhar Department
International Islamic Academy of Uzbekistan
Email: *motabar77m@gmail.com*
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Alisher Navoiy, Uzbek literary language, Muhokamatu-l-lug'atayn, Khamsa, Sab'ai Sayyor, Turkic language, Arabism, Persian words, Uzbek poetry, literary heritage, philology, linguistics.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article examines the role of Alisher Navoiy in the development of the Uzbek literary language and analyzes his literary heritage. The advantages of the Turkic language, as discussed in his work Muhokamatu-l-lug'atayn, as well as his contribution to Uzbek poetry through the Khamsa collection, are highlighted. Additionally, the use of Arabic and Persian words in the poem Sab'ai Sayyor and their literary significance are explored. The philological and linguistic importance of Navoiy's works and their contribution to the development of the Uzbek language are extensively covered.

ALISHER NAVOIYNING "SAB'AI SAYYOR" MASNAVIYSIDA ARABIZMLAR

Mu'tabarxon A. Madayeva
Katta o'qituvchi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Email: madinaqodirova0207@gmail.com
O'zbekiston, Toshkent,

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, o'zbek adabiy tili, "Muhokamatu-l-lug'atayn", "Xamsa", "Sab'ai sayyor", turkiy til, arabizm, forsiy so'zlar, o'zbek poeziyasi, adabiy meros, filologiya, lingvistika.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tilining rivojlanishidagi o'rni va uning adabiy merosi tahlil qilinadi. Shoirning "Muhokamatu-l-lug'atayn" asarida turkiy tilning afzalliklari, "Xamsa" dostoni orqali esa o'zbek poeziyasiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Shuningdek, “Sab’ai sayyor” dostonidagi arabcha va forscha soʻzlarning ishlatilishi va ularning adabiy ahamiyati tadqiq qilinadi. Navoiy ijodining filologik va lingvistik ahamiyati, uning oʻzbek tili taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi keng yoritilgan.

АРАБИЗМЫ В МАСНАВИ "САБЪАИ САЙЁР" АЛИШЕРА НАВОИ

Муътабархон А. Мадаева
Старший преподаватель
Кафедра Арабского языка и литературы аль-Азхар
Международная исламская академия Узбекистана
Email: motabar77m@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Алишер Навои, узбекский литературный язык, «Мухокамату-л-луғатайн», «Хамса», «Сабаи сайёр», тюркский язык, арабизмы, персидские слова, узбекская поэзия, литературное наследие, филология, лингвистика.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль Алишера Навои в развитии узбекского литературного языка и анализируется его литературное наследие. Освещаются преимущества тюркского языка, изложенные в его труде «Мухокамату-л-луғатайн», а также вклад поэта в узбекскую поэзию через сборник «Хамса». Кроме того, исследуется использование арабских и персидских слов в поэме «Сабъаи сайёр» и их литературное значение. Филологическое и лингвистическое значение творчества Навои и его вклад в развитие узбекского языка подробно раскрыты.

Kirish

Alisher Navoiy oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida ulkan oʻrin tutgan shoir va mutafakkirdir. U turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini ochib berish, uni yozma adabiyot va ilm-fan tili sifatida targʻib qilish orqali oʻzbek madaniyatiga beqiyos hissa qoʻshgan. XV asrga kelib, fors va arab tillari ilm-fan va adabiyot sohalarida yetakchi mavqega ega boʻlib, turkiy til asosan ogʻzaki nutq vositasi sifatida foydalanilgan. Alisher Navoiy “Muhokamatu-l-lugʻatayn” asarida turkiy tilning fors tilidan hech qanday jihatdan kam emasligini asoslab berdi va oʻz ijodi orqali oʻzbek adabiy tilini yuksak badiiy darajaga olib chiqdi. Ushbu maqolada Navoiy ijodining tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyati, uning oʻzbek poeziyasi va adabiy tili rivojiga qoʻshgan hissasi hamda “Xamsa” tarkibiga kirgan “Sab’ai sayyor” dotonidagi arab soʻzlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Alisher Navoiy ijodi va uning oʻzbek adabiy tilining rivojlanishiga ta’siri koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Borovkov (1958) Alisher

Navoiyni oʻzbek adabiy tilining asoschisi sifatida tavsiflab, uning lingvistik merosini batafsil tahlil qilgan. Is'hoqov (2000) esa Navoiy poetikasining shakllanishi, janr jihatidan takomillashuvi va uning oʻzbek lirik poeziyasi rivojiga ta'siri haqida yozgan. Shuningdek, Weinreich (1968) oʻzining "Languages in Contact" asarida turli tillarning oʻzaro ta'sirini oʻrgangan boʻlib, bu uslub Navoiy ijodidagi arabizm va forsizmlarning oʻzbek tili bilan uygʻunlashuvini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Metodologik yondashuv sifatida maqolada qiyosiy-tahliliy va tarixiy-lingvistik metodlar qoʻllanilgan. Navoiy asarlaridagi leksik birliklar va arabcha hamda forscha soʻzlarning oʻzbek tilidagi semantik oʻzgarishlari tahlil qilinib, ularning poeziyadagi oʻrni aniqlangan. Shuningdek, ilmiy-tanqidiy manbalar asosida Navoiy ijodining lingvistik va adabiy xususiyatlari oʻrganilgan.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga koʻra, Alisher Navoiy ijodi oʻzbek adabiy tilining shakllanishida fundamental oʻrin tutgan. "Muhokamatu-l-lugʻatayn" asarida u turkiy tilning imkoniyatlarini asoslab bergan va bu tilning ham ilmiy, ham badiiy jihatdan yuksak saviyaga ega ekanligini isbotlagan. Shuningdek, "Xamsa" tarkibidagi dostonlarda turkiy tilning badiiy ifoda vositalari takomillashgan boʻlib, bu asarlar oʻzbek poeziyasining keyingi rivoji uchun mustahkam asos yaratgan.

Alisher Navoiy asarlari oʻzbek xalqi adabiyoti tarixida haqiqiy poetik til asosida yozilgan manba sifatida tanilgan. XV asrgacha Oʻrta Osiyoda arab tili ilmiy til, fors tili esa badiiy uslub manbai hisoblangan. Shu davrlarda ijod qilgan olimlar qay millat vakili boʻlmasin, shu ikki tilda asarlar yozishgan. Garchi Mirzo Ulugʻbek saroyida shoir Sakkokiy she'rlari oʻzbek tilida boʻlib, koʻpchilik tinglovchilarga zavq bagʻishlagan boʻlishiga qaramay, oʻzbek tili va uning poeziyasi e'tibordan yiroq edi.

Asta-sekin oʻzbek adabiyoti Navoiyning yetakchiligi va shijoati bilan uning yaratgan asarlari, san'at namunalari orqali rivojlana boshladi. Y.Is'hoqov "Navoiy poetikasi" kitobida shunday ta'kidlaydi: "Oʻzbek lirik poeziyasining janriy jihatdan boyishi va takomillashuvi bevosita Alisher Navoiy nomi bilan bogʻliq. Navoiy devonida, bir tomondan, oʻzbek poeziyasida shakllangan an'anaviy lirik janrlarning yangicha rivojini kuzatsak, ikkinchi tomondan, fors adabiyotida mustahkam qonun-qoidalarga ega boʻlgan, ammo oʻzbek yoki umuman turkiy adabiyotda kam uchraydigan ayrim janrlarning yangi sharoitda paydo boʻlishi va rivojlanishini koʻrish mumkin", deb fikr bildiradi. (Ë., 1983)

Navoiy "Muhokamatu-l-lugʻatayn" asarida ilgari surilgan gʻoya – turkiy tilning forsiy til imkoniyatlaridan kam emasligini isbotlash edi. Navoiy turkiy tilni yuqori maqomga koʻtarishda beqiyos hissa qoʻshgan. U turkiy tilning goʻzalligini, uning ilmiy va adabiy salohiyatini butun dunyoga namoyon etgan. Shuningdek, turkiy tilni ulugʻlashdagi asosiy xizmatlari uning bir qancha asarlarida namoyon boʻladi. U turkiy tilning nafaqat soʻzlashuv tili, balki yozma adabiyot va ilm

uchun ham munosib til ekanini isbotladi. Asarda forsiy va turkiy tillarni solishtirib, turkiy tilning afzalliklarini, lug'aviy boyligini, so'z va ma'no ko'lamini ko'rsatib beradi, grammatik tuzilishidagi soddalik va mantiqiylikni ta'kidlaydi.

Shu asosda Navoiy buyuk "Xamsa" dostonini turkiy tilda yaratdi. Nizomiy va Xusrav Dehlaviy bilan musobaqa tariqasida yozilgan "Xamsa" besh dostondan iborat bo'lib, 50 ming misraga yaqin masnaviyni o'z ichiga oladi. "Xamsa"dagi "Sab'ai sayyor" dostonida boshqa masnaviylardan farqli ravishda yetti musofirning yetti hikoyati bayon etiladi. Navoiy "Xamsa"sini tashkil etgan dostonlarning to'rtinchisi va eng ajoyibi "Sab'ai sayyor"dir. Navoiy bu go'zal dostonni "Sab'ai sayyor" deb atagan bo'lsa ham, navoiyxonlar va "Xamsa" noshirlari unga "Haft manzari Bahrom" deb nom qo'yganlar, doston shu nomi bilan shuhrat qozongan. (T., 1968) "Sab'ai sayyor" 10016 misradan iborat bo'lib, unda hayotning rang-barang lavhalari mujassam. Bu doston Navoiyning san'atkorlik mahoratini, keng tasavvur doirasini, turmushning turli jihatlarini chuqur bilganini ko'rsatuvchi badiiy ijod namunasidir. Badiiy asarning qimmatini belgilashda uning kompozitsiyasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, "Sab'ai sayyor" haqida so'z borganda, eng avvalo uning go'zal va maroqli kompozitsiyasini ko'rsatib o'tish zarur. Doston ravon uslubi, boy tasviriy imkoniyatlari, teran ma'noli tashbeh va istioralari bilan ajralib turadi.

Dostonda Bahrom va Dilorom tarixini bayon qilish bilan birga, darveshlar so'zlab bergan hikoyatlar asosida Sharqda mashhur bo'lgan afsona va rivoyatlar bayon etiladi. Bir rivoyat ichida boshqa rivoyat hikoya qilinadi. Asarning oxirida boshlang'ich voqea bilan bog'langan holda yakunlanadi. Bahrom Go'r obrazining turli xalqlar folklori va adabiyotidagi aks etishi, uning shaxsiyati haqida turlicha tushunchalarni shakllantirgani e'tiborlidir. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar Eron shohlari tarixiga bag'ishlangan "Siyaru muluki-l-furs", "Tarixi Tabariy", "Tarixi muluki ajam" asarlarida batafsil keltirilgan. (Навоий, Сабъаи сайёр, 1956) "Sab'ai sayyor" she'riy yo'l bilan yozilgan, asosan, mustaqil va shu bilan birga, yagona g'oya ipiga chizilgan yetti go'zal hikoyadan iborat bo'lib, o'rta asr romanchiligining eng porloq namunalaridan biridir. Unda Navoiyning ham shoirlik, ham hikoyanavislik sohasidagi genial qobiliyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Doston leksikasidagi arabcha so'zlarni stilistik jihatdan ikki kategoriyaga bo'lish mumkin:

1. Keng iste'mol qilingan – neytral so'zlar.
2. Adabiy-kitobiy so'zlar.

Keng iste'mol qilingan arabcha so'zlar asarda turli ma'nolarni ifodalashi, har xil stilistik funksiyalarni bajarishi bilan xarakterlanadi. Badiiylik, obrazlarni jozibali ifolashda Navoiy bu so'zlar yordamida katta imkoniyatga ega bo'lgan. Quyida keltirilayotgan so'zlar doston leksikasida juda faol qo'llanilgan:

“hol” حال – “ahvol, kayfiyat, xususiyat, payt” /142 / 6.4%, (حَلَّ – “bo‘shamoq” fe’lining aniq daraja sifatdoshi);

“ahl” أُهْلٌ – aholi, yashovchi, qarindosh, oila / 99 / 4.5%, (أَهَلَ – “uylanmoq” fe’lining masdari);

“nav” نَوْعٌ – tur /97/4.4%/ (نَاعَ – “turli xil bo‘lmoq” fe’lining masdari);

“olam” عَالَمٌ – olam, dunyo / 95 / 4.3% / (علم – “belgi qo‘ymoq” fe’lining masdari),

“qasr” قَصْرٌ – qasr / 86 / 3.9%/ (قصر – “qisqa qilmoq” fe’lining masdari);

“g‘am” غَمٌّ – xafalik, g‘am / 68 / 3.1% / (غَمَّ – “xafa bo‘lmoq” fe’lining masdari);

“ishq” عشق – sevgi, ishq / 67 / 3% / (عشق – “sevmoq” fe’lining masdari);

“sifot” صِفَات – sifatlar, xususiyatlar / 65 / 2.9% / (وصف – “sifatlamoq” fe’lining masdari صِفَةٌ – sifat, xususiyat so‘zining muannas to‘g‘ri ko‘pligi) va boshqa shu kabi o‘zlashmalar.

Dostondagi adabiy-kitobiy so‘zlar grammatik qoidalarga qat’iy rioya qilingan holda qo‘llanganligi bilan xarakterlanadi.

Masalan: “zohir” ظاهر – ko‘rinib turgan, ochiq-oshkor (ظهر – “paydo bo‘lmoq” fe’lining aniq daraja sifatdoshi);

“hajr” هجر – ayriliq, judolik (هجر – “ko‘chib o‘tmoq” fe’lining masdari);

“iztirob” اضطراب - iztirob (اضطراب – “bezovta bo‘lmoq” VIII bob fe’lining masdari);

“mug‘anniy”مغني - ashulachi, sozanda, cholg‘uchi (غَنَّى – “kuylamoq” II bob fe’lining masdari);

“aqiq”عقيق - qimmatbaho qizil tosh (عَقَّ – “yirtmoq” fe’lining masdari);

“visol” وصال – erishuv, yetishuv (واصل – “bog‘lanmoq” III bob fe’lining masdari);

“kavkab”كوكب – yulduz (كوكب – “yoritmoq” to‘rt o‘zakli fe’lning aniq daraja sifatdoshi) kabi o‘zlashma so‘zlar shular jumlasidan.

Terminologik jihatdan ijtimoiy sohani ifodalaydigan so‘zlar bor bo‘lib, ularga: “ma’no” معنى – ma’no (عَنَّى – “ma’no bermoq” fe’lining aniq daraja sifatdoshi);

“muhandis” مهندس – binokor mutaxassis (هندس – “muhandis bo‘lib ishlamoq” to‘rt o‘zakli fe’lning aniq daraja sifatdoshi);

“musofir” مسافر – safar qiluvchi, sayr qiluvchi (سافر – “safar qilmoq” III bob fe’lining aniq daraja sifatdoshi);

“qosid” قاصد – xabarchi, elchi, chopar (قصد – “maqsad qilmoq” fe’lining aniq daraja sifatdoshi);

“maqsud” مقصود – maqsad, istak (قصد - “maqsad qilmoq” fe’lining majhul daraja sifatdoshi);

“g‘aroyib” غرائب – qiziq narsalar, kamyob narsalar, qiziqliklar (غرب- “qiziqarli bo‘lmoq” fe’lining masdari غريبة – qiziq so‘zining siniq ko‘pligi);

“ulum” علوم – ilmlar (علم – “ilm olmoq” fe’lining masdari, عِلْمٌ – ilm so‘zining siniq ko‘pligi);

“manzur” منظور – ko‘rilgan, ko‘ringan, maqbul bo‘lgan (نظر – “qaramoq” fe’lining majhul daraja sifatdoshi);

“hikoyat” حكايات - hikoyalar, ma’lumotlar (حكى – “gapirib bermoq, hikoya qilmoq” fe’lining masdari, حكاية so‘zining muannas to‘g‘ri ko‘pligi);

“zamon” زمان – zamon, dam-badam, har chog‘ (زمن – “vaqtlar oralig‘ida bo‘lmoq” fe’lining masdari) kabi o‘zlashmalar kiradi.

Poetik so‘zlar odatda kitobiy tilga xos bo‘lib, ular obrazning poetik tasvirini ochishda, qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va vaziyatini ifodalashda, shuningdek, badiiy tasvirning rang-barangligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday so‘zlarga quyidagilar kiradi: muanbar معنبر - , munojot مناجات -, munis مونيس - , murod مراد - , mushtoqمشتاق - , mojaroماجرا - , mahramمحرم - , muhabbatمحبت - , malakملك - , majlisمجلس - , ishqعشق - , oshiqعاشق - , ayon عيان - , vafoوفاء - , vaslوصل - , aflokأفلاك - , atrعطر - , mahbubمحبوب - , ma’shuqمعشوق - , in’omانعام - , hajrحجر - , azmعزم - , nuktaنكتة- , ziynatزينت - , jannatجنت - . Ushbu so‘zlar arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, poetik nutqning boyligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

“Sab’ai sayyor” dostoni o‘zida juda ko‘p arabcha so‘zlarni mujassam etgan. Ulardan baytlarda, misralarda foydalanilishi, o‘zgacha ma’no berishi hodisasini leksik-semantik jihatdan talqin qilish, mazmun va shakl jihatidan izchil o‘rganish filologiya sohasi uchun muhim ilmiy xulosalar beradi. Chunki Alisher Navoiy ijodidagi arabizmlarni leksik-semantik jihatdan o‘rganish XV asr oxirlarida o‘zbek adabiy tilining leksik tarkibi, boshqa xos jihatlarini yoritib berish imkonini yarata oladi. Bunda poeziyaning turli xil yo‘nalishlari, badiiy mavqeidan kelib chiqib, arabizmlarning o‘z qatlam so‘zlari va forscha so‘zlar bilan bilan birga kelgandagi o‘zaro munosabati, kontekstual vazifalari muhim hisoblanadi. Quyidagi misralarga diqqat qiling:

حیلی کردون صفت لیغ ایلادیلار خصمی غه یکجهت لیغ ایلادیلار

Xayli gardun sifatlig‘ ayladilar,
Xasmig‘a yakjihatlig‘ ayladilar.
(Навоий, Сабъаи сайёр, 1956)

Ushbu “ يكجهتليغ” so‘zida “يك” fors tilida “bir” so‘zini anglatsa, “ جهت” arabcha “جهة” so‘zi “taraf”, “ليغ” o‘zbekcha qo‘shimchani anglatadi, ushbu baytda “dushmanlariga qarshi birlashdilar, jipslashdilar” degan ma’noni beradi. (Навоий, Сабъаи сайёр, 1991) Yuqorida aytilganidek, arabcha so‘z, forscha so‘z va o‘zbekcha qo‘shimcha bilan o‘zaro birikib, o‘ziga xos ma’noni anglatyapti.

Binobarin, o‘zbek tili rivojlanishi tarixida arabcha o‘zlashmalar o‘rta asrlardayoq sezilarli grammatik assimilyatsiyaga uchradi, keyinchalik uning nisbatan to‘laqonli birligi sifatida yangi til materiali doirasida rivojlanish jarayoni sodir bo‘ldi. Arabcha so‘zlarning kirib kelishi o‘rta asrlar

jamiyati hayotining barcha sohalarida sodir bo‘ldi. Arab leksemalari o‘zbek tilining yordamchi fe’l leksemalari yordamida murakkab fe’l shakllarini hosil qildi.

“Arabizmlar semantikasidagi o‘zgarishlar komponent va qiyosiy tahlil usullari orqali o‘rganildi. Bu o‘zgarishlar turli shakllarda, jumladan: semantik kengayish, semantik torayish, asliy ma’nodan semantika olib tashlanishi va asliy ma’noga zid bo‘lgan ma’nolarni ishlatish orqali namoyon bo‘ladi”. (Казакбаева, 2012) Bunga “Sab’ai sayyor” dostonida keltirilgan bir o‘zakli so‘zlarni misol qilish mumkin.

قیلدی هر نوع کم ایدی ممکن
سرو گولجهری شینینی ساکن

Qildi har nav’kim edi mumkin,
Sarv gulchehra shaynini sokin.
(Навоий, Сабъаи сайёр, 1956)

Mazmuni: Sarv gulchehraning hovurini pasaytirib, o‘ z taklifiga ko‘ndirish uchun qo‘lidan nima kelsa, hammasini qilib ko‘rdi.

Bu she’rda dunyoviy imkoniyatlarning ozodligi va ularning sokiniyatiga ishora bor.

بولسا اول جه دا نیجا کم ساکن
قاچمغای بولماغای اکا ممکن

Bo‘lsa ul chahda nechakim sokin,
Qochmog‘i bo‘lmag‘ay anga mumkin.
(Навоий, Сабъаи сайёр, 1956)

Mazmuni: unda gunohkor kishilarni hibs qiladigan bo‘lsalar, chohning ichidan hech qachon hech yerga qochib qutilish mumkin emas edi.

Yuqoridagi ikki misrani talqin qiladigan bo‘lsak, birinchi misrada ساکن - pasaytirish, sekinlashtirish ma’nosi keng ifodalansa, ikkinchi misrada arab tilidagi ساکن so‘zi “turuvchi, shu yerda bor” degan haqiqiy ma’noni anglatyapti. E’tiborli jihati shundaki, bir o‘zakli so‘zning semantik kengayishi namoyon bo‘lyapti.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida Navoiy asarlaridagi grammatik va morfologik strukturalarning barqarorligi ham kuzatildi. Shoir turkiy tilning fleksiyali tuzilishini saqlagan holda, arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarni sintaktik jihatdan moslashtirgan. Bu esa Navoiy poetikasining mustahkam va o‘ziga xos shaklga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, shoir “Sab’ai sayyor” dostonida arabcha so‘zlar bilan o‘zbekcha so‘zlarni bir-biriga bog‘lab o‘ziga xos kompozitsiya yaratgan.

مستمع بولسا عرض ایتی آنی مینی دیرلار جهان ایلی مانی
کوب بیلیک برلا خاطریم معمور لیك تصویر ایلا بولوب مشهور

“Mustami’ bo‘lsa arz etay oni,

Meni derlar jahon eli Moniy”.

Mazmuni: Meni eshitishni lozim ko‘rsalar, arzimni bayon etayin, meni butun xalq Moniy deb ataydilar, xotiram ko‘p bilimlar bilan boyigan bo‘lsa ham, rassomlik bilan dunyoga mashhur bo‘ldim”.

“مستمع” - tinglovchi, eshituvchi.

“عرض” – izhor, bayon, murojaat, istak, iltimos; shikoyat.

“خاطر” – es, yod, xotira.

“معمور” – obod, obodon, ma’mur.

“تصوير” – tasavvur, surat chizish, tasvirlash.

“مشهور” – hammaga ma’lum bo‘lgan, shuhrat topgan.

Bir qarashda, shoir arab so‘zlarining o‘rniga o‘zbek so‘zlarini qo‘llay olar edi, deb o‘ylash mumkin. Lekin qofiya, mazmun jihatidan ma’noning to‘liq ifodalanish yo‘lining arabizm orqali amalga oshirilishi natijasida baytlar san’at darajasiga ko‘tarilgan.

Xulosa. Alisher Navoiy o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiy tilini ilmiy va badiiy jihatdan rivojlantirib, uni yuqori darajaga olib chiqqan. U fors va arab tillarining badiiy me’yorlarini o‘rganib, o‘zbek she’riyatida yangi uslub va janrlarni shakllantirgan. “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari orqali turkiy tilning forsiy til bilan tengligini ilmiy asoslar bilan isbotlagan.

“Xamsa” va ayniqsa, “Sab’ai sayyor” dostonida Navoiy arabcha va forscha so‘zlardan foydalanib, ularni turkiy til sintaksisi bilan uyg‘unlashtirgan va shu orqali yangi poetik model yaratgan. Bu esa Navoiy ijodining nafaqat adabiy, balki lingvistik jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kelgusida Navoiyning lingvistik va poetik merosi yanada chuqur o‘rganilishi lozim. Xususan, uning asarlaridagi leksik birliklar va ularning zamonaviy o‘zbek tiliga ta’siri bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Alisher Navoiy. (1956) Khamsa. Sab’ai Sayyor. Scientific-Critical Text. (Prepared by: Porso Shamsiyev). – Tashkent: UzFA Publishing House. – 209 p. (in Uzbek)
2. An-Naim. (2003) Arabic-Uzbek Dictionary. – Tashkent. – 959 p.
3. Bafoyev B. (1983) Lexicon of Navoi's Works. – Tashkent: Fan. – 157 p. (in Uzbek)
4. Borovkov A.K. (1946) Alisher Navoi as the Founder of the Uzbek Literary Language // Alisher Navoi. – Moscow-Leningrad, (in Russian)
5. Is’hoqov Yo. (1983) Navoi’s Poetics. – Tashkent: Fan, – 167 p. (in Uzbek)
6. Sodiqov Q. (2009) History of the Turkic Language. – Tashkent, – 369 p.

7. Yusupov M. (1983) Arabic Izofa Constructions in Navoi's Prose Works // Uzbek Language and Literature. – Tashkent, No. 1. – P. 51. (in Uzbek)

8. Kazakbaeva G. A. (2009) Arabisms in the Uzbek Language in Applied and Theoretical Aspects. Dissertation for the Degree of Candidate of Philological Sciences. – Moscow, – 102 p. (in Russian)

9. Khasanov S. (1990) The Poem "Sab'ai Sayyor" (Seven Wanderers) by Alisher Navoi in a Comparative-Typological Perspective. Abstract of the Doctoral Dissertation in Philological Sciences. – Tashkent. (in Uzbek)

10. Erkinov A. (1998) Sources of the Interpretation of Alisher Navoi's "Khamsa" from the 15th to the 20th Century. Doctoral Dissertation in Philological Sciences. – Tashkent. (in Uzbek)

11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1bw_rAoAAAAJ&citation_for_view=1bw_rAoAAAAJ:9yKSN-GCB0IC